

**“MAKTABDA KASBIY YO‘NALTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BO‘YICHA
ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR”****Sanobar Asilova***Qo‘qon universiteti Pedagogika va psixologiya
kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xorijiy mamlakatlarda umumta‘lim maktablarida kasbiy yo‘naltirish faoliyatini tashkil etish tajribalari o‘rganiladi. Shuningdek, ilg‘or tajribalarning asosiy xususiyatlari, ularni O‘zbekistondagi ta‘lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy yo‘naltirish, ta‘lim tizimi, pedagogik mexanizm, mehnat bozori, bitiruvchilar, ilg‘or tajriba.*

Zamonaviy ta‘lim tizimida kasbiy yo‘naltirish faoliyati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Maktab o‘quvchilarining kelajakda to‘g‘ri kasb tanlashi, bozor talablariga mos mutaxassis bo‘lib yetishishi uchun ularga erta yoshdan boshlab kasb-hunar tanlash borasida aniq va samarali yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish zarur. Umumta‘lim maktablari yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonida asosiy rol o‘ynaydi. Maktablar nafaqat o‘quvchilarni bilim bilan ta‘minlash, balki ularning shaxsiy qobiliyatlari, qiziqishlari va kelajakdagi kasbiy faoliyatini belgilashda ham muhim vazifani bajaradi. Zamonaviy jamiyatda kasb tanlash jarayoni tobora murakkablashib borayotganligi sababli, maktablarda yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Kasb-hunarga yo‘naltirish jarayoni maktabda o‘quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Ko‘plab rivojlangan mamlakatlar bu borada ilg‘or tizim va metodikalarga ega. Maktabda kasbiy yo‘naltirish faoliyatini tashkil etish borasida ayrim ilg‘or xorijiy tajribalar ko‘rib chiqilganda Amerika Qo‘shma Shtatlarida kasbiy yo‘naltirish faoliyati ta‘lim tizimining ajralmas qismi ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Maktablarda **Career Guidance Counselor** (Kasbiy yo‘naltiruvchi psixolog) lavozimi mavjud bo‘lib, u har bir o‘quvchining qiziqishlari, qobiliyatlari va mehnat bozoridagi real ehtiyojlar asosida yo‘naltirish ishlarini olib boradi. Shuningdek, o‘quvchilarga **"Career Day"** (Kasblar kuni), **internship** (amaliyot), hamda turli kasblar bilan tanishtirish seminar va treninglari yo‘lga qo‘yilgan.

Germaniyada esa kasbiy yo‘naltirish faoliyati maktabdan tashqari, ish beruvchilar va kasb-hunar kollejlarining bevosita hamkorligida amalga oshiriladi. Bu yerda **"Dual ta‘lim tizimi"** mavjud bo‘lib, o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida maktabda nazariy bilim oladi va korxonalarda amaliyot o‘taydi. Bu esa o‘quvchining kelajakdagi kasbiga puxta tayyorgarlik ko‘rishini ta‘minlaydi.

Yaponiyada kasbiy yoʻnaltirish tizimi oʻquvchining shaxsiy rivojlanishiga alohida urgʻu beradi. Har bir maktabda oʻquvchilarning kasbiy rivojlanishiga masʼul boʻlgan maxsus maslahatchilar faoliyat yuritadi. Kasblar haqida keng qamrovli maʼlumotlar bazasi va testlar orqali oʻquvchilar oʻzlarining qiziqishlariga mos kasbni tanlash imkoniyatiga ega boʻladi.

Shuningdek, yapon maktablarida kasb tanlashga oid fanlar ham oʻqitiladi. Bu fanlarda oʻquvchilarga mehnat bozori, kasblar xaritasi, ish beruvchilarning talablari va shaxsiy qobiliyatlar haqida maʼlumotlar beriladi.

Taʼlim sohasida olib borilayotgan islohatlarga nazar tashlaydigan boʻlsak, ilgʻor xorijiy tajribalar shuni koʻrsatadiki, maktabda kasbiy yoʻnaltirish faoliyati samarali yoʻlga qoʻyilgandagina oʻquvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatini belgilab, ularni butun jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojiga xizmat qiladigan shaxslar boʻlib yetishishini erishish mumkinligini guvohi boʻlamiz. Oʻzbekiston taʼlim tizimida ham ushbu ilgʻor tajribalarni mahalliy sharoitga mos holda joriy qilish orqali yoshlarni toʻgʻri kasb tanlashga yoʻnaltirish ishlari yoʻlga qoʻyilgan boʻlib, bu islohot oʻz samarasini berib kelmoqda. Yoshlarni kasb-hunar tanlashga tayyorlashda har bir oʻgʻil-qiz shaxsidagi individual xususiyatlarni inobatga olish, ularning tugʻma isteʼdodlari, maʼlum bir kasb-hunarga nisbatan boʻlgan layoqat, moyillikka qarab kasb-hunar yoʻnaltirish yoshlar orasida ishsizlikning oldini olish barobarida jamiyatga foydasi tegadigan mutaxassislar soni koʻpayishida muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan ham maktablarda oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirish ishlari eng muhim vazifa sifatida qaralib kelinmoqda. Buning samarasi oʻlaroq oʻquvchi yoshlar oʻzlari istagan kasb-hunarni oʻz vaqtida toʻgʻri tanlashga erishishmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asilova, S., & Abdulxaqov, N. (2024). **MAKTAB BITIRUVCHILARINI KASB-HUNAR TANLASH MUAMMOLARIGA PSIXOLOGIK YORDAM. *Interpretation and researches.***
2. Asilova, S. X. (2023). **MAKTAB BITIRUVCHILARINI KASB TANLASH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI. *YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS*, 2(8), 12-16.**
3. Arapovna, Y. L. F., & Xatamboevna, A. S. (2024). **BOSHLANGʻICH SINF OʻQUVCHILARIDA KASBIY QIZIQISH MOTIVLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI. *Kokand University Research Base*, 120-122.**
4. Xatamboevna, A. S. (2023). **TARBIYASI QIYIN OʻQUVCHILARNI KASB-HUNARGA YOʻNALTIRISH MASALALARI. *QOʻQON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 180-183.**